

DIAGNOSTIKA VA DAVOLASHDA, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI

Sadullayeva Dilfuza Murodullayeva

(1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatlik texnikumi
2-Umumkasbiy fanlar kafedrasi o`qituvchisi)

Mamliyeva Shahlo Maxsudovna.

(1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatlik texnikumi
Xirurgiya Reanimatsiya kafedrasi o`qituvchisi)

Xamidova Zilola Abdugafurovna

(1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatlik texnikumi
Xirurgiya Reanimatsiya kafedrasi o`qituvchisi)

ANNOTATSIYA. Hozirgi zamон raqamlı texnologiyalar va texnikalar davri hisoblanadi. Tibbiy axborot va aynan zamonaviy texnologiyalar orqali inson organlarining qanchalik sog`lom yoki nosog`lomligini aniqlash, kasallikni aynan qayerda bo`layotganini aniqlash, ularga qarshi chora tadbirlarni korib chiqish imkoniyatini beradi. Ushbu maqola texnologiyalari faol kirib kelgan sohalardan biri, tibbiyot sohasida kompyuter apparatlarini keng qo'llanilishi haqida yoritib berilgan.

KALIT SO`ZLAR. Texnologiya, sog`lom, komyuter, kasalliklar, diagnostika, davolash.

ANNOTATION. Today is the era of digital technologies and techniques. Through medical information and modern technologies, it is possible to determine how healthy or unhealthy human organs are, to determine exactly where the disease occurs, and to consider countermeasures. This article describes the widespread use of computer equipment in the field of medicine, one of the fields in which technology has actively entered.

KEY WORDS. Technology, healthy, computer, diseases, diagnosis, treatment.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari faol kirib kelgan sohalardan biri - tibbiyot. Tashxis qo'yish, muolaja olib borish va profilaktik ko'riklar taqozosidan kompyuter apparaturalari keng qo'llaniladi. Masalan, kompyuter tomografiysi, yadroli tibbiy tashxislash, ultratovushli tashxislash, mikrokompyuter texnologiyalari asosidagi rentgen tadqiqotlari shular jumlasidandir.

Kompyuterlashtirilgan texnika tibbiyot xodimlariga bilimlarini oshirish, qo'llash, institutda ta'lif olgan nazariy ilmlarini amaliyatda sinab ko'rish imkoniyatini taqdim etmoqda. Shuningdek, zamonaviy tibbiyotchilar kompyuter vositasida epidemik kasalliklarning tarqalish tezligini ko'rsatuvchi xarita yaratmoqdalar. Masofaviy tashxislash dasturlari esa shifokor va bemor aloqalarida uzviylik kasb etdi. Jumladan,

tibbiyotning stomatologiya yo‘nalishiga ham axborot texnologiyalari keng kirib kelib, tishlarni davolash va protezlash kompyuter yordamida bajarilmoqda. Tish va prodontni raqamlı rentgenografiya qilish amaliyoti shifokorga va bemorga osonlik tug‘dirdi, tish holatidan to‘liq xabardor bo‘lib, to‘g’ri davolashga yetakladi. Dental videokameralar muolaja qay darajada ta’sir qilayotganini kuzatib borish imkonini beradi. Shifokor va hamshiralarni qiy nab kelayotgan muammolardan biri tibbiyotdagı qog‘ozbozlik edi. Ishi shunda ham ko‘p va mas’uliyatli sanalmish xodimlar harakatlarini ipidan-ignasigacha qog‘ozga tushirishga majbur edilar. Ammo sohadagi har bir harakat inson salomatligi va hatto hayotini hal qilar darajada muhim bo‘lgani bois yozuv-chizuvdan voz kechib ham bo‘lmaydi. Barchasi fakt sifatida qayd etilishi shart, ertaga isbot bo‘lishidan tashqari kelasi muolajalar uchun ham asqotadi. Bu boradagi baxs hamda ikkillanishlarga axborot texnologiyalari uzil-kesil nuqta qo‘ydi: Bemor va muolajalarga oid tibbiy tarix qayd etiladi, faqat buni shifokor emas, kompyuter va internet bajaradi. Doktor esa blankalarni to‘ldirishga ketkazadigan vaqt hisobidan ham bemorni kuzatadi, davo choralarini izlaydi. Shu tariqa xizmat sifati yaxshilanadi. Robotlarning operatsiya qilishi, telefonlari mobil ilovalar orqali salomatlik holatini tekshirish, texnik qurilmalar orqali laboratorik tahlillarni uy sharoitida o‘tkazish. Bugungi kunda afsona emas, haqiqatga aylangan ushbu voqealar atrofida bir savol paydo bo‘ladi: Hamma ish texnikaga yuklansa, tibbiyotchilar va ayniqsa jarroh, terapevt, laborantlar ishsiz qoldmaydimi? Birinchidan, tibbiyotda mas’uliyat texnikaga to‘liq yuklanmaydi. Jarayonni kuzatib borish, tashxisni tasdiqlash baribir shifokorning zimmasida qolaveradi. Ikkinchidan, o‘z sohasida yutuqqa erishish istagidagi tibbiyotchi texnika bilan ko‘proq do‘s st tutinadi, uning imkoniyatlaridan to‘lig‘icha foydalanishga urinadi. Shunda uning noni yarimta bo‘lmaydi, balki texnologiyalar vositasida ishi yanada unum topadi, mijozlari ko‘payadi, obro‘s si oshadi. Onlayn navbat va ro‘yxatdan o‘tish tizimlaridan poliklinikalar yo‘laklaridagi asabbuzar kutishlarga barham berish ko‘zlangan. Tadqiqotlardan biri shuni ko‘rsatdiki, bemorlarning aksariyati turnaqator navbat chog‘i zerikkanlaridan bir-birlari bilan gaplashadilar, dardlarini aytadilar va bir-biriga davo bo‘yicha maslahat berishni boshlashadi. U ma’lumotlar esa har doim ham assosli bo‘lavermaydi. Kasallikni boshidan o‘tkazgan odamning gapiga ishongan sherigi o‘zini u kabi davolashga tushadi Vaholanki, har bir organizm o‘ziga xos, muolajalar shundan kelib chiqqan holda mutaxassis tomonidan tavsiya etilishi kerak. Real hayotda navbatdagi sherigidan davolanish sirini eshitib, shifokor oldiga kirishni ham ortga surib, uyiga jo‘nagan bemorlardan misollar bir talay. Axborot texnologiyalari rivoji esa xalqning tibbiy savodxonligida ijobiylar ta’sir ko‘rsatsa, ajab emas.